

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINIYETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Eraliyev Sardorjon Rustamjon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Andijon, O‘zbekiston

### ARTICLE INFO.

**Kalit so‘zlar:** meva-sabzavot mahsulotlari, samaradorlik, qayta ishlash, yetishtirish, iqtisodiyot, ichki bozor.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash tarmoqlarini samaradorligini ko‘tarishga va buni amalga oshirishdagi muammolarni bartaraf etish yo‘llari keltirilgan. Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash orqali yuqoriroq samaradorlikka ega bo‘lish yo‘llari taklif qilinadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Bilamizki, har qanday rivojlangan davlatda ham oziq-ovqat xavfsizligiasosiy vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekistonda ham oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha bir qancha muamolar mavjud, ushbu muamolarni yechish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, meva-sabzavotchilik sohasidagi muamolarni oladigan bo‘lsak, ular ham o‘z yechimini kutmoqda. Ushbu sohadi muamolar ham prezidentimiz tomonidan ham ta‘kidlab o‘tildi. Masalan, bog‘ va tokzorlarning yaroqsiz holatga kelib qolgani, minglab gektar eski bog‘lar yillar davomida hosil bermayotgani.

O‘zbekistonda bunday mevazorlar, ayniqsa intensiv usuldagi bog‘lar yetarlicha tashkil etilmayotgani, bog‘ va tokzorlar yaroqsiz holatga kelib qolgani sababli ularning iqtisodiy samaradorligi o‘ta past darajada qolayotgani, qator tumanlarda minglab gektar eski bog‘lar yillar davomida hosil bermayotgani tanqid qilindi. Hanuzgacha «mahsulot yetishtirish — xarid qilish — saqlash va qayta ishlash — eksport» zanjirini tashkil etadigan kooperatsiya tizimi joriy qilinmagani bundan tashqari seleksiya, logistika, qayta ishlash, saqlash tarmoqlarida ham yetarlicha kamchiliklar borligi aytib o‘tildi.

Mineral o‘g‘itlar ta‘minoti, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish ishlari tizimli tashkil etilmagani ham dehqonning ortiqcha ovora bo‘lishiga olib kelib, hosildorlikni oshirishga salbiy ta‘sir qilmoqda.

Shu kabi muamolar meva-sabzavotchilik sohasini keng rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda. Bu kabimuamolarni bartaraf qilish orqali sohani keng rivojlantira olamiz. Shuning prezidentimiz tomonidan sohani rivojlantirishga doir yangi qarorlar qabul qilinmoqda. Masalan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o‘zlashtirish, paxta, g‘alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni ko‘paytirish, shuningdek, bog‘, tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali

foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son qaroriga asosan:

Jizzax, Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarining 8 ta tumanida jami 41 ta meva-sabzavotchilik yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi birlashmalari tashkil etilganligi;

2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishda klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

### **Shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq:**

meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha klasterlarni (keyingi o'rinlarda - meva-sabzavot klasteri) tashkil etish tashabbuskor, tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi o'rtasida tuziladigan uch tomonlama kelishuv (keyingi o'rinlarda — uch tomonlama kelishuv) asosida amalga oshiriladi;

meva-sabzavot klasterini tashkil etish bo'yicha tashabbuskorlar, qoida tariqasida, qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlar orasidan, ularning tajribasi va imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlab olinadi, bunda birinchi navbatda mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash bo'yicha to'liq ishlatilmayotgan quvvatlarni ishga tushirish nazarda tutiladi.

Ushbu qarorlar ijrosini ta'minlanganligini, hududlarda kamchiliklar bartaraf qilinayotganini quyidagi statistik ko'rsatkichlarda bilishimiz mumkin.

Meva-sabzavotchilik sohasidagi statistik ma'lumotlarga nazar solsak, hozirgi kunda ushbu soha bo'yicha raqamlar nimani aks ettirmoqda. Masalan, statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston xorijga qiymati 150,1 mln AQSH dollariga teng bo'lgan 251,2 ming tonna meva sabzavot eksport qilgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (26,6%), Rossiya (26,1%), Qozog'iston (9,1%) va xitoy (9%) davlatlar xissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yakuniga ko'ra hududlar kesimida yetishtirilgan meva-sabzavotlar hajmini ko'rib chiqsak,

Andijonda eng ko'p sabzavot yetishtirilgan (1 772,6 ming tonna).

Andijonda eng ko'p meva va rezavorlar yetishtirilgan (696,8 ming tonna)

Samarqandda eng ko'p uzum yetishtirilgan ( 639,2 ming tonna)

Samarqandda eng ko'p kartoshka yetishtirilgan (726,3 ming tonna)

2023- yilda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlar hajmi:

Sabzavotlar – 11,6 mln tonna

Poliz ekinlari - 2,4 mln tonna

Meva va rezavorlar – 3,1 mln tonna

Uzum - 1,7 mln tonna

O'zbekiston 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida 33 ta xorijiy davlatlarga qiymati 26,6 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan 27,6 ming tonna qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilgan.

Rossiya – 16,4 ming tonna

Ukraina – 549 tonna

Afg‘oniston – 1,8 ming tonna

Belarus R. – 974 tonna

Tojikiston – 908 tonna

Ukraina – 549 tonna

Koreya – 485 tonna

Yuqoridagi statistik ko‘rsatkichlardan shuni tahlil qilishimiz mumkinki, hududlar kesimida qanday mahsulot turiga ixtisoslashganini o‘rganib turib, yanada ko‘proq mahsulot olishimiz mumkin ekan. Masalan, Andijon viloyatini oladigan bo‘lsak, ushbu hudud meva va rezavor yetishtirishga imkoniyati raqamlardan yuqoriligi ko‘rinib turibdi. Bundan tashqari Samarqand viloyati poliz ekinlari yetishtirishga salohiyati yuqoriligi raqamlarda yaqqol bilinadi. Shu hududlar misolida meva-sabzavotchilikni rivojlantirsak, nafaqat ichki bozor balki tashqi bozorda ko‘proq davlar bilan raqobat qila olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni
2. <https://qashstat.uz/uz/>
3. <https://kun.uz/news>
4. <https://lex.uz/>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/>
6. <https://stat.uz/uz/>